

**SHAHAR VA QISHLOQ HUDUDLARIDA IJTIMOY MUAMMOLAR:
FARG‘ONA TUMANIDAGI XONQIZ VA QO‘RG‘ONTEPA QISHLOQLARI
MISOLIDA**

Ismoilov Azizbek Abdumalik o‘g‘li

Farg‘ona davlat uiversiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Farg‘ona tumanining ijtimoiy-iqtisodiy holati kompleks tarzda tahlil qilinib, Qo‘rg‘ontepa va Xonqiz qishloqlari misolida mavjud muammolar chuqur o‘rganiladi. Tadqiqot jarayonida hududdagi demografik o‘sish sur‘atlari, aholi bandligi darajasi, qishloq xo‘jaligiga bog‘liq iqtisodiy faoliyatning o‘ziga xos jihatlari, suv resurslari tanqisligi hamda infratuzilmaning rivojlanish darajasi tahlil qilindi. Shuningdek, hududiy joylashuvning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga ta‘siri, transport va logistika tizimidagi cheklovlar ham ko‘rib chiqildi. Tadqiqot natijalari asosida hududiy rivojlanishga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillar, ularning kelib chiqish sabablari hamda ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Mazkur muammolarning o‘zaro bog‘liqligi ochib berilib, ularning aholi turmush darajasi va migratsiya jarayonlariga ta‘siri yoritildi.

Kalit so‘zlar: *Qo‘rg‘ontepa, Xonqiz, globallashuv, demografik o‘sish, bandlik, iqtisodiy muammo, infratuzilma.*

Annotation

This article comprehensively analyzes the socio-economic situation of Fergana district and deeply examines the existing problems using the examples of the villages of Kurgan -Tepa and Khanqiz. The study analyzed the demographic growth rate in the area, the level of employment, the specific aspects of economic activities dependent on agriculture, the scarcity of water resources, and the level of infrastructure development. The impact of the territorial location on economic and social processes, as well as restrictions on the transport and logistics system, were also considered. Based on the results of the study, the main factors that hinder territorial development, the reasons for their origin and socio-economic consequences were scientifically substantiated. The relationship of these problems was revealed and their impact on the standard of living of the population and migration processes was highlighted.

Keywords: *Kurgan-Tyube, Khanqiz, globalization, demographic growth, employment, economic problem, infrastructure.*

Аннотация

В ходе исследования были проанализированы темпы демографического роста в регионе, уровень занятости населения, особенности экономической деятельности,

связанной с сельским хозяйством, дефицит водных ресурсов, а также уровень развития инфраструктуры. Также рассматривалось влияние территориального расположения на экономические и социальные процессы, а также ограничения в транспортной и логистической системах. На основе результатов исследования научно обоснованы основные факторы, препятствующие региональному развитию, причины их возникновения и социально-экономические последствия. Выявлена взаимосвязь этих проблем и освещено их влияние на уровень жизни населения и миграционные процессы.

Ключевые слова: Курган-Тюбе, Хангыз, глобализация, демографический рост, занятость, экономическая проблема, инфраструктура.

Kirish

Globalashuv va modernizatsiya jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda hududlarning barqaror rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, qishloq hududlari katta iqtisodiy va demografik salohiyatga ega bo'lib, ularni rivojlantirish orqali umumiy milliy taraqqiyotga sezilarli hissa qo'shish mumkin. So'nggi yillarda ushbu hududlarda infratuzilmani yaxshilash, transport va kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish borasida muayyan ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, ayrim muammolar — jumladan, bandlik masalalari, resurslardan samarali foydalanish va infratuzilmaning ayrim jihatlarini takomillashtirish zarurati mavjud bo'lib qolmoqda. Biroq ushbu muammolarni hal etish uchun zarur imkoniyatlar va salohiyat mavjudligi, ayniqsa yosh mehnat resurslarining ko'pligi hududlarni yanada rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi. To'g'ri va kompleks yondashuv orqali qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirish hamda hududlar o'rtasidagi tafovutni kamaytirish imkoniyati mavjud.

Asosiy qism

1. Demografik o'sish va uning ta'siri

2025-yil holatiga ko'ra Farg'ona tumani aholisi 228 106 kishini tashkil etib, o'sish sur'ati 2,1 % ni tashkil etgan. Aholining 60–65 % ini yoshlar tashkil etishi hudud uchun katta mehnat resursi hisoblanadi, biroq bu bandlik masalasini keskinlashtirishi mumkin¹⁰³. Demografik o'sish quyidagi muammolarni yuzaga keltirib chiqishi mumkin:

- ish o'rinlari yetishmasligi
- ta'lim va tibbiyot tizimlariga yuklama ortishi

¹⁰³ <https://www.farstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/17920-farg-ona-tumanida-doimiy-aholi-soni-228-106-kishiga-yetdi.html>

- uy-joyga ehtiyojning oshishi

2. Bandlik va iqtisodiy muammolar

Hudud iqtisodiyoti asosan qishloq xo‘jaligiga tayanadi. Bu soha asosan mavsumiy bo‘lib, qish faslida ishsizlik ortib ketadi. Asosiy muammolar:

- doimiy ish o‘rinlarining yetishmasligi
- ishlab chiqarish korxonalarining kamligi
- yashirin ishsizlikning yuqoriligi.

Natijada, aholi, ayniqsa yoshlar, mehnat migratsiyasiga majbur bo‘lmoqda. Farg‘ona tumanida demografik tarkibning asosiy xususiyati — yoshlar ulushining yuqoriligidir. Statistika ma‘lumotlariga ko‘ra, aholining 60–65 foizi 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar hisoblanadi¹⁰⁴. Bu holat hudud uchun katta mehnat resurslari salohiyatini anglatadi. Bu esa oilaviy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi.

3. Infratuzilma va hududiy cheklovlar

Mazkur qishloqlar tuman markazidan uzoqda joylashgani sababli xizmatlardan foydalanish qiyinchilik tug‘diradi. Farg‘ona tumanida aholining katta qismi qishloqlarda istiqomat qiladi. Bu esa iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligining ustunligini belgilaydi. Shu bilan birga, qishloq hududlarida infratuzilma rivojlanishi shaharga nisbatan sustroq kechmoqda.

Qishloq xo‘jaligi vazirligi hisobotlariga ko‘ra, qishloq hududlarida:

- sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish
- suv resurslaridan samarali foydalanish
- qishloq infratuzilmasini rivojlantirish

dolzarb masalalar hisoblanadi¹⁰⁵. Bu esa xarajatlar ortishiga olib keladi.

4. Ishlab chiqarishning yo‘qligi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ish o‘rinlari yetishmasligining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra, qishloq hududlarida, jumladan Farg‘ona tumanida ishlab chiqarish korxonalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli doimiy va barqaror ish o‘rinlari soni cheklangan¹⁰⁶. Korxonalar va zavodlarning kamligi yoki umuman mavjud emasligi aholining, ayniqsa yoshlarning bandlik imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi. Natijada, ish izlab yirik shaharlar yoki boshqa hududlarga migratsiya qilish holatlari

¹⁰⁴ <https://www.farstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/17920-farg-ona-tumanida-doimiy-aholi-soni-228-106-kishiga-yetdi.html>

¹⁰⁵ Qishloq xo‘jaligi vazirligi. Qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlari, 2023.

¹⁰⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Mehnat resurslari va bandlik bo‘yicha ma‘lumotlar, 2022–2024.

ko‘payadi. Mahalliy ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilmagan joylarda iqtisodiy faollik past bo‘ladi, xizmat ko‘rsatish sohasi ham yetarli darajada rivojlanmaydi. Bu esa nafaqat ish o‘rinlarining kamayishiga, balki aholi daromad darajasining pasayishiga ham olib keladi. Shu bilan birga, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur‘atlari sekinlashadi. Shuning uchun ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash hamda investitsiyalarni jalb qilish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu esa aholi bandligini oshirish va turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Farg‘ona tumanidagi Qo‘rg‘ontepa va Xonqiz qishloqlarida ijtimoiy-iqtisodiy muammolar tizimli xarakterga ega. Ular asosan quyidagi omillar bilan bog‘liq:

- demografik o‘shish
- bandlik muammolari
- ishlab chiqarish tarmoqlari yetarli rivojlanmaganligi

Mazkur muammolarni hal etish uchun kompleks yondashuv zarur bo‘lib, infratuzilmani rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va resurslardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.farstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/17920-farg-ona-tumanida-doimiy-aholi-soni-228-106-kishiga-yetdi.html>

2. <https://www.farstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/17920-farg-ona-tumanida-doimiy-aholi-soni-228-106-kishiga-yetdi.html>

3. Qishloq xo‘jaligi vazirligi. Qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlari, 2023.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Mehnat resurslari va bandlik bo‘yicha ma‘lumotlar, 2022–2024.